



Jinoyat haqida xabar berish

- Jinoyat harakatiga guvoh bo'lgan yoki jabr ko'rsangiz 112 raqamiga xabar bersangiz zudlik bilan miliitsiya yordamidan foydalanishingiz mumkin.**
- Xabar berayotganingizda qachon, qayerda, qanday jabr ko'rgansiz va jinoyatchining ko'rinishi, alohida belgilari, qo'sidagi narsalar, kishilar soni, qochgan yo'naliши va transport vositasini to'g'ri aytib bering.
- 112 raqamiga xabar berish uchun taksofon shoshilinch raqami (qizil rang-dagi shoshilinch bog'lanish tugmasi+112) dan foydalanganingizda tangasiz foydalanish mumkin, jinoyatdan tashqari shoshilinch holatlarda ham foydalanish mumkin.
- Chet elliklar 112 telefon raqamiga arz qilishida 3 tomonloma tarjima xizmati(miliitsiya-tarjimon-arz qiluvchi)dan foydalanib jinoyat(zarar) haqida xabar qabul qilinadi.
- Agar qo'ng'iroq qilish noqulay bo'lsa '112 favqulodda vaziyat hisoboti' orgali orgali xabar berishingiz mumkin.
※ '112 favqulodda holat hisoboti' ilovasini Google Play Store dan yoki App Store dan yuklab olgandan so'ng foydalanish mumkin.
- Ko'ngilsiz jinoyat sodir bo'lgan joyda dalillarni ko'paytirish uchun miliitsiya xodimlari kelguncha o'z holida saqlab, miliitsiya xodimiga yordamlashishingiz kerak.



Ko'mak so'rash qo'ng'iroqlari

Jinoyat haqida xabar va shoshilinch bog'lanish

Jinoyat haqida xabar (Miliitsiya boshqarmasi)	112
Maktabdag'i zo'ravonlik bo'yicha xabar markazi (Miliitsiya boshqarmasi)	117
Yong'in, shoshilinch bermor, favqulodda qutqaruv xizmati (O't o'chirish xizmati)	119
Xakkerlik, spam, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash haqida xabar berish (KISA)	118
"Heparagi" markazi (Ayolar va ola vazirligi)	1899-3075
Bola yo'qolgan, uydan chiqib ketganda (Miliitsiya boshqarmasi)	182
Ayollarga shoshilinch maslahat berish xizmati (Ayolar va ola vazirligi)	1366
Danuri koll markazi (Ayolar va ola vazirligi)	1577-1366

Boshqa shikoyatlar

Chet elliklarga umumiyyat ma'lumot markazi (Adliya vazirligi)	1345
Hukumat murojaat koll-markazi (Davlat boshqaruvi va xavfsizlik vazirligi)	110
Turistlarga ma'lumot (Koreya turizm korporatsiyasi)	1330
Inson huquqi buzilishi, konsultatsiya (Inson huquqlarini himoya qilish qo'mitasi)	1331
Huquqiy maslahat (Koreya huquqiy yordam tashkiloti)	132
Bolalarni himoya qilish maxsus tashkiloti (Sog'ligi saqlash vazirligi)	129
O'smirlar online konsultatsiyasi (Ayolar va ola vazirligi)	1388



Koreya ichki ishlar xodimlari sizga bexatar jamiyatni ta'minlab beradi.

- Miliitsiya Adliya vazirligi bilan birgalikda jabrланувчиларга ko'mak berish maqsadida va Koreyada yashayotgan chet ellik fuqarolarning inson huquqlarini himoya qilish maqsadida {Noqonuniy muhojirlar xabar berish tizimi} ni boshqarmoqda.**
- Ushbu tizim {Noqonuniy muhojirlar majburiy xabar berish tizimi} noqonuniy muhojirlar jinoyat qurbaniga aylansa va bu haqiqatni miliitsiyaga oshkor etsa, ushbu shaxsning ma'lumotlari immigratsiyadan sir tutiladi.
- Jinoyat turi quyidagicha :

- (Jinoyat qonuni) odam o'dirish, shikast yetkaizish / tajovuz, qasddan odam o'dirish, jasadni yashirish / tanga shikast yetkaizish, hibsga olish, qamash, qo'rqitish, o'g'rilish / o'g'rilikni rejalashtirish, zo'rash / axloqsizlik, huquqburzilik, talonchilik / qurol bilan qo'rqitish, firibgarlik / tahdid, havf solish kabilar.
- (Maxsus qonun) Zo'ravonlik harakatlari jazosi to'g'risidagi qonun, jinsiy zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar jazosi bo'yicha maxsus qonun, yo'l-transport hodisalari bo'yicha maxsus qonun, foishahalari otish kabi harakatlarni jazolash to'g'risidagi qonun, ish xavfsizligi to'g'risidagi qonun (46-modda).

- Agar siz jabrланувчи bo'lsangiz, ikkilanmang, 112ga murojaat qilib, ko'mak olishingizni so'raymiz.

- Miliitsiya mahkamasiga tashrif buyurmay ham jinoyat (zarar) haqida xabar berish va arz qila olishliklari uchun chet elliklar bermalol kirib-chiqadigan Multimadaniyatli oilalarni qo'llab-quvvatlash markazlari, nodavlat tashkilot kabilar 'chet elliklar uchun yordam markazi' sifatida yuritilib kelinmoqda.**

Foydalanish usuli

- Chet elliklarning jinoyatdan jabr ko'rsishi(shikoyat) sodir bo'ladi
- Chet elliklar yordam markaziga xabar yoki maslahat olinadi
- Mahkamada ro'yxatdan o'tkaziladi va maslahat olinadi
- Mahkamada yordam ko'satiladi yoki tegishli organiga xabar berilgach yordam ko'satiladi



- Chet elliklarga yordam markaziga borib, jinoyat haqida xabar berilsa yoki hayotiy qiyinchiliklar haqida maslahatga ariza berilsa, markaz xodimi murojaatri qabul qilib yaqin politsiya mahkamasining tashqi ishlar bo'yicha xodimiga yetkazadi. Qabul qilin-gan murojaat asosida miliitsiya mahkamasining mas'ul bo'limi buni bevosita hal qiladi yoki tegishli organlarga xabar beradi.



Jinoyat haqida xabar berish yoki maslahat mazmuniga ko'ra yordam berish

- Zo'ravonlik-oiladagi zo'ravonlik-maktabdag'i zo'ravonlikfiribgarlik (arz-da've) kabi jinoyat holatlari haqida xabar berilganda miliitsiya mahkamasining ma'sul bo'limida bevosita yordam ko'satiladi.
- Olyikdan urib qolish, sanoat tufayli zarar ko'rish, viza bilan bog'liq holatlari mehnat vazirligi. Ayollar va ola qo'mitasi, adliya vazirligi kabi ma'sulidor organlarga xabar beriladi va arzga qarab tegishli elchixonha yoki konsullik xizmatiga murojaat qilinadi.

※ Chet elliklarga yordam markazidan foydalanish uchun yaqin miliitsiya mahkamalaridan birining tashqi ishlar bo'limiga murojaat qilish mumkin.

- Jinoyat (zarar)ning oldini olish yo'llarini o'rgatadi va haydovchilik guvohnomasini olish bo'limida tahsil olish imkonini beradi.**

- Istiqomat qiladigan chet elliklar xavfsizligi va ularning jamiyatga moslashishida yordam berish maqsadida
- Multi-madaniyatlari oilalarni qo'llab-quvvatlash markazi, ish joyi, nodavlat tashkilot(NGO) kabilar chet elliklar to'plangan joyga bevosita boradi, nikoh migrant ayollar, chet ellik ishchi, chet ellik talaba kabilarga hususiyatlarga ko'ra tez-tez sodir bo'ladigan jinoyat misollari va ehtiyoj choralar kabilar haqida batafsil ma'lumot berib, qiyinchiliklar bo'yicha maslahat beruvchi 'O'zi topib boradigan ta'lim xizmati'
- 'Chet elliklar uchun haydovchilik guvohnomasini olish bo'lim' da iqtidorli mutahassis o'qituvchilar bepul ta'lim ko'satadi va bu ta'lim asosida imtiyon topshirish huquqiga ega bo'ladi. (3 xil tilda kitoblar beriladi)

Haydovchilik guvohnomasini imtihoni bo'yicha ma'lumot

- Yo'l-transport korporatsiyasi haydovchilik guvohnomasini uchun testmarkazi **1577-1120** (<https://www.safedriving.or.kr>)
- Imtihon Imtihon 3 xil tilda amalga oshiriladi :
 - ※ Ingliz, xitoy va vietnam tillarida

※ Jinoyat oldini olish darsi va haydovchilik kursi darslaridan foydalanish uchun yaqin miliitsiya mahkamalaridan birining tashqi ishlar bo'limiga murojaat qilishingiz mumkin.

- Koreys tilini yaxshi bilmaydigan chet elliklar uchun jinoyat (zarar) haqida xabar berish va arz qilishda tarjimonlik xizmati yo'liga qo'yilgan**

Tarjimonlik xizmati haqida

- Turistlik tarjima xizmati **1330**
 - koreys, ingliz, yapon, xitoy va boshqa 8 xil tilda
 - koreys, ingliz, yapon, xitoy va boshqa (24 soat)
 - rus tili - vietnam tili - malay tili(08:00~19:00)
- Danuri koll markazi **1577-1366** (24 soat)
 - vietnam, mongol, khmer va boshqa 13 xil tilda
- Chet elliklarga umumiyyat ma'lumot markazi **1345, 1661-2025**
 - tayland, indonez, urdu va boshqa 20 xil tilda
 - koreys, ingliz, xitoy (09:00~22:00)
 - vietnam kabi 17ta til(09:00~18:00)
- BBB Koreya **1588-5644** (24 soat)
 - turk, polyak, hind, malay, va boshqa 20 xil tilda

www.police.go.kr

우즈베크어(우즈베키스탄)

O'zbek tili

Chet elliklar uchun jinoyatning oldini olish yo'riqnomasi



경찰청
KOREAN NATIONAL POLICE AGENCY



Bilmasdan jinoyat qilib qo'yishning turlari

- Noqonuniy tasvirga olish, pomografik ma'lumotlarni yuborish kabi harakatlardan qattiq jazolanadi.
- Tanaga teginilmasada, ① internet· telefon kabilalar orqali jinsiy uyatli holatni keltirib chiqaradigan gap yoki rasmni yuborish ② boshqa kishining tanasini o'zining roziligidisiz tasvirga olish ③ o'zining roziligidisiz tarqatish harakatlari jinoyat hisoblanadi.

Jazolash bandlari

- ① Jinsiy zo'ravonlikni jazolash kabilalar to'g'risidagi maxsus qonunning 13-moddasi (2 yilgacha qamoq jazosi yoki 5 mln. vongacha bol'gan jarima)
- ②,③ Jinsiy zo'ravonlikni jazolash kabilalar to'g'risidagi maxsus qonunning 14-moddasi (5 yilgacha qamoq jazosi yoki 30 mln. vongacha bol'gan jarima)

- Giyohvand moddalami olib yurish yoki qabul qilish qattiq jazolanadi.
- Giyohvand moddalami sotish, sotib olish, qabul qilish kabi harakatlarni amalga shorsangiz, noqonuniy olib o'tsangiz yoki cheksangiz qattiq jazo olasiz.

Jazolash bandlari

- Giyohvandlik vositalarini nazorat qilish to'g'risidagi qonunning 60-moddasi (10 yilgacha qamoq jazosi yoki 100 mln. vongacha jarima)

- Zo'ravonlik, tan jarohat yetkazish, qo'rqtish, uyiga bostirib kirish, mol-mulkiga zarar yetkazish, g'ayriqonuniy qamab qo'yish, majburlash, do'q-po' pisa qilish, ustidan kulish kabi jinoyatlarni amalga oshirish maqsadida guruh to'plash, unga qo'shilish yoki faoliyat yurishit yanada qattiq jazolanadi.

- Pichoq, temir chiviq, temir arra kabi inson hayotiga havfli va jismoniy shikast yetkazuvchi o'tkir qurollarni noqonuniy olib yurish mumkin emas.

Jazolash bandlari

- Jinoyatni jazolash qonunining 3-moddasi 2-bandni (100 ming vongacha jarima, hibsdan saqlash, yengil jarima) quroq, sovuq quroq, portlovchi moddalar kabi nazorat qonunining 12-moddasi (5 yilga cha qamoq jazosi, shuningdek 10mln vongacha bo'lgan miqdorda jarima)

Qimor, qimorxona ochish

- Pul tikib majak (Xitoy), hairou (Tayland), Xocdia (Vietnam), poker, hvatu (Koreya) kabi qimor o'ynilarini o'ynash mumkin emas.
- Qimorxona uchun joy berish ham qimorbozlik harakati hisoblanadi va qattiq jazolanadi.

- Yo'lga qo'yib ketilgan velosiped kabi egasiz ko'rindigan narsalar ham o'z hoxishicha olib ketilganda ham o'g'irlilik yoki birovning mulkiga ega chiqish jinoyati hisoblanadi.

- Moliya organlaridan foydalananmay o'zaro kelishuv orqali chet elga pul o'tkazish harakati ham javobgartlikka tortiladi.

- 17 yoshdan yuqori chet elliklar doimo o'zi bilan pasport, chet ellik ID kartasini olib yurishlarini kerak va bu qoida buzilganda jarima (1 mln vongacha) solinadi.

- Agarda boshqa kishining shaxsnı tasdiqlovchi xujijatidan foydalansangiz yoki o'z shaxsingizni yashirishga harakat qilsangiz yolg'on ma'lumot orqali davlat xodimi ishiga to'siqlik qilish hisoblanib, bu alohida jazolanadi.

※ Militsiya boshqarmasi va Immigratsiya nazorati siyosati boshqarmasi 2014-yildan boshlab chet elliklar shaxsiy ma'lumotlardan ommaviy foydalananotganligi bois militsiya ham chet elliklar shaxsiy ma'lumotlarini joyida aniqlashi mumkin.

Mashina yoki mototsikl boshqarganda, haydovchilik guvohnomasiz kabi quyidagi hollarda qattiq jazolanadi

- Haydovchilik guvohnomasiz transport vositasini boshqarganda

Jazolash bandlari

- ① Avtomobil ⇒ 1 yilgacha qamoq jazosi yoki 300 ming vongacha jarima
- ② Mototsikl ⇒ 300 ming vongacha jarima

- Spirlli ichimlik ichgan holda transport vositasini boshqarish

Qondagi alkogol miqdori	Jazo	Ma'muriy jazo
0.03%dan yuqori – 0.08%dan past	1 yilgacha qamoq jazosi	Haydovchilik guvohnomasiz vaqtinchalik toxtatib qo'yish
0.08%dan yuqori – 0.2%dan past	1-2 yil qamoq jazosi	Haydovchilik guvohnomasini bekor qilish
0.2%dan yuqori	2-5 yil qamoq jazosi	Haydovchilik guvohnomasini bekor qilish
2marta dan ortiq mas'had holda boshqarish	2-5 yil qamoq jazosi	Haydovchilik guvohnomasini bekor qilish

- Qonuniy tarzda o'z nomiga o'tkazilmagan transport vositasini boshqarish

Jazolash bandlari

- Avtomobilarni nazorat qilish to'g'risidagi qonunning 81-moddasi 7-2-bandi (1 yilgacha qamoq jazosi yoki 10 mln. vongacha jarima)

Fundamental tartib-intizomga bo'yunsunmaslik uchun ham jazo yoki jarima belgilanishi mumkinligiga e'tibor bering.

- Tamaki goldigi', saqich, axlat kabilarni e'tiborsizlik bilan duch kelgan joyga tashlash mumkin emas.
- Jamoat joylarida e'tiborsizlik bilan tuflash yoki ruhsat etilmagan joyda tamaki iste'mol qilish mumkin emas.
- Mototsikl haydovchisi va unga hamroh kishi havfsizlik kaskasini taqishi kerak va yo'lni kesib o'tganda yo'lovchilar ko'prichasi yoki piyodalar o'tadigan yo'ldan o'tish lozim.



Kundalik hayotiy jinoyatlar oldini olish va uni bartaraf etish choralarini

Firibgarlik (noqonuniy piramida savdo, telefon orqali moliyaviy firibgarlik (Voice Phishing), internetdagli firibgarlik kabi)

- Odatli ulgurji va chakana tovar aylanishi bosqichi orqali emas, balki xaridor bevosita sotuvchi sifatida tovari sotishi amalga oshiriladi va quyidagi holatlarda tashkilotga a'zo bo'lish yoki sotuvchi bo'lish taklifi etilganda shartsiz rad qilinishi lozim.

- qisqa muddat ichida yuqori daromadga ega bo'lishni va'da qilib sar-moyadorni yig'ishi, sotib olish, majburiy xarid, kredit olishga undaga

- to'liqsz ish haftasida ishlash, qo'shimcha biznes va ishga kirishni va'da qilib sotuvchi sifatida ro'yxatga olinib, aslida esa tovari majburlab xarid qildirganda

- tovari yuqori sifatlari deb yolg'on ma'lumot berish va bo'rttirish orgali qimmatga sotganda

Qayd etilgan qoununiy tashkilotami tekshirish va ma'lumot

- Adolati savdo-sotiqliq qo'mitasi www.ftc.go.kr, 044-200-4010
- To'g'ridan to'g'ri savdoni amalga oshiruvchi birlashma www.macco.or.kr, 02-566-1202
- Koreya maxsus savdoni amalga oshiruvchi birlashma www.kossa.or.kr, 02-2058-0831

- O'zga shaxsga sotilgan yoki berib turilgan bank hisob kitobchasi jinoyat maqsadida foydalaniishi mumkin bo'lib, hisob kitobchasi sotib turish harakati qonunan qat'yan man qilinadi. Telefondan foydalanan ja-moat kabi moliyaviy tashkilotni soxta o'zlashtirib hisob raqami, kar-tochka, qayd etish raqami kabi shaxsiy ma'lumotlar yoki naqd pul o'tkazmasi talab qilinganda umuman javob bermaslik lozim.

※ Firibgarlar quyidagi uyushmalari bo'lmish naqd pul yechib olish, xizmat markazi telemarkete kabilar ham firibgarlikka kirib qattiq jazolanadi.

Bog'liq hodisalar

- Farzandingiz telefonli ishlamayotgan paytidan foydalani, farzandingiz o'g'irlangan deb pul talab qilishi
- Milliy nafaqa xizmatlari agentligi va milliy tibbiy sug'urtasi agentligi nomini soxta o'zlashtirib soliq qaytarib berishni taklif qilishi
- Bank, kredit kartochkalari kompaniyasi, kommunikatsiya kompaniyasi nomini soxta o'zlashtirib kartochkadan hisob-kitob qilish va xizmatlardan foydalanan xarajatlarini uzaytrishni bahona qilishi
- Militsiya, prokuratura kabi tekshiruv organlari nomini soxta o'zlashtirib shaxsiy ma'lumot yoki moliyaviy savdo haqidagi ma'lumotlami talab qilishi
- Elektron pochtada do'stingiz boshqa kishining hisob raqamiga pul o'tkazishingizni so'rasha

- Internet orqali o'za ro savdo-sotiqdan iloji boricha uzoq bo'ling va interndan xarid qilayotganingizda sotuvchi haqidagi ma'lumotni sinch-kovlik bilan tekshiring.

※ Kiber xavfsizlik markazi (cyberbureau.police.go.kr) va kiber militsiya (telefon.orgli.xabar.berish.dasturi): Internet firibgarlari haqida guman qilib xabar berish va jabrlanganligi haqida xabar berish

Oiladagi zo'ravonlik · Uchrashuv (tanishuv) ostidagi zo'ravonlik

- Oiladagi zo'ravonlik-tanishuv ostida zo'ravonliklar sodir bo'lsa, ikkilamasdan yaqin atrofdagi militsiya hodimlari (qarindosh, qo'shni, do'star)ga xabar berishingda ulardan ko'mak oling.

※ Fotosurat, tibbiy ma'lumotnomasi kabi zo'ravonlikni isbotlashga yordam dalish va ashyolarni yig'ing, ayollar maslahatxonalarini / ayollar boshpana bilan ta'minlash idoralarini jumladan, ayollarga favqulodda yordam berish maslahat xizmati telefonli (avqulodda yordam berish maslahat 1366 / Tanuri chaqiriq markazi 1577-1366 ga murojaat qiling.)

- Oiladagi zo'ravonlik / Tanishuv ostidagi zo'ravonlik sodir etilsa, o'zingiz (jumladan, farzandlar)ning xavfsizligi juda muhim, shuning uchun favqu-lodda vaziyatlardan bir oz qochib, xavfli holatdan o'zingizni qutqarishingda

Bolaning yo'qolishi, bola o'g'irlash, bolaga jabr yetkazish

- Bolaga begona shaxs o'zini taniydigandek qilib ko'sitsa hech qachon orgasidan bormay, zudlik bilan qochishi va mabodo zo'r lab olib ketmogchi bo'lsa, baqirib atrofdagilardan yordam so'rashi kerakligini o'rgating.

- Bo'lgaga o'z ismi, yoshi, manzili, telefon raqami, ota-onasining ismi kabilarni esda tutishni o'rgating. Va bola tashqariga chiqqanda kim bilan qayerga borayotganligini hamda qanday kiyimda chiqib ketganligini yodda tuting.

- Bola tashqariga chiqqanda kontakt ma'lumotlar yozilgan bo'yin munchoq, bilaguzuk, ismi yozilgan karta kabi bolaning yo'qolishi bilan bog'liq buyumlar tashqa ridan oson ko'rinasligiga e'tibor bering.

- Bo'lgaga jismoniy, jinsiy, ruhiy qiyonoq berish yoki unga g'amho'rlik qilmay yakkalatib qo'yishlik bolaga jabr yetkazish hisoblanib, bu qattiq jazolanadi.

Maktabdag'i zo'ravonlik

- Maktabdag'i zo'ravonlik deganda maktab hududida o'quvchiga nisbatan kuch ishlatalib qo'rqtish, ustidan kulish natijasida tan-jarohat hamda ruhiy shikast, mulkiga zarar yetkazadigan harakatlardan tushumiladi.

- Odamlar kam qatnaydigan xilvat ko'chalarida yolg'iz yurmaslik, zarar yetkazuvchi tonomidan qimmatbafo buyumlar olib qo'yilish kabi zo'ravonlik harakati sodir etilganda albatta, militsiya organlariga xabar berish singari faol harakat qilish lozim.

- zarar yetkazgan bola haqidagi ma'lumot va qachon, qayerda, zo'ravonlik qanday sodir bo'lganligi haqidagi dalil va voqeaga guvoh bo'lgan do'star orqali dalillarni ko'paytirish maqsadga muvoqif.

Jinsiy huquqbazarlik (Zo'rashuv, tahdid bilan jinsiy tegishin, noqonuniy tasvirga olish, foishalik va boshqalar)

- Jinsiy zo'ravonlikka uchraganda yuvinmasdan kiygan ichki kiyim va boshqa kiyimlarni o'sha holicha saqlab 112ga zudlik bilan xabar bering.

- Jin oyatchi haqida xotirangizda qolgan barcha ma'lumot (jinoyatchining ko'rinishi, o'ziga hos xususiyati) larni eslab qolish uchun yozib qo'ying.

- Atrofingizda jinsiy jinoyat jabrlanuvchisini ko'rsangiz uning gaplarini eshitib 1577-1366ga qo'nig'iroq qilib maslahat olishida yordam bering.

- Fohishabozlikka majburlash kabilardan jabr ko'rganingizda 1577-1366 ga qo'nig'iroq qilib maslahat oling.

SMS-xabar orqali moliyaviy firibgarlik (Smishing)

- Bepul kupon kabi mazmundagi SMS-xabar da ko'rsatilgan internet adresi ochilsa → virusli kod telefonga o'matlib → jabrlanuvchiga bildirmay kichik miqdorda pul yechib olish, shaxsiy ma'lumot kabilarni yashirin o'g'irlash

- Yaqin kishigizdan kelgan SMS-xabar bo'lsa ham, undagi internet adresini telefon qilib tekshiring, mobil telefonga nomi'lum dastur avtomatik ravishda o'matilishidan saqlab, himoya tizimini nazorat qilish orqali zarami oldini olamiz.

※ Mobil telefoning himoya tizimini sozlash tartibi: Sozlash → xavfsizlik → Apparatni boshqarish → 'nomi'lum manba'ga V belgi qo'yish

O'g'irlilik (egasiz uylami o'marish, kissavurlik, bosqinchlik kabi)

- Uzoq muddatli safar yoki mehnat ta'llili payti uyni bo'sh qoldirganda

- Gazeta yoki sut kabi doimiy yetkazilib turiladigan narsalar eshilganda yig'ilib qolmasligi uchun oldindan choralarini ko'rib, sut kiritiladigan tuyunkni qulflab qo'ying.

- Tilla buyumlar yoki naqd pul kabi qimmatbafo mulkingizni bankga topshirib, uyda saqlaganingizda alohida alohida kerakli joyda saqlang.

- Odamlar ko'p to'planadigan terminal, bozor kabi gavium joylarda e'tiborsizlikdan foydalaniq bo'lingizdagida narsani olib qochishi mumkinligini e'tiborga olib ehtiyyot bo'lishingiz kerak.

- Sumkani har doim devor yoki yo'lak tarafga tutib bog'ichini uzun qilmasdan yelkadan ko'krak tomonqa diagonal shaklda taqing.

- Moliyaviy organlarda katta miqdordagi naqd pulni olayotganingizda militsiyadan yordam so'rang.